

Namangan viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 22,5 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bir xillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- yanvar holatiga, birlik	2026- yil 1- yanvar holatiga, birlik
Mingbuloq tumani	984	1225
Kosonsoy tumani	1117	1264
Namangan tumani	1159	1310
Norin tumani	988	1228
Pop tumani	1478	1624
To'raqo'rg'on tumani	1262	1407
Uychi tumani	1154	1296
Uchqo'rg'on tumani	1066	1346
Chortoq tumani	1252	1447
Chust tumani	1697	1911
Yangiqo'rg'on tumani	1061	1285
Namangan sh.	6329	7128

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 4278 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar- dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tashkil etilgan eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar soni savdo sohasida 1718 ta, sanoat sohasida 622 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 594 ta hamda 533 ta boshqa xizmatlar hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar- dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 1308 ta, Uchqo'rg'on tumanida 350 ta, Mingbuloq tumanida 343 ta, Chortoq tumanida 296 ta Kosonsoy tumanida 278 ta, hamda Norin tumanida 274 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Mingbuloq tumani	278	343
Kosonsoy tumani	276	278
Namangan tumani	159	182
Norin tumani	211	274
Pop tumani	305	258
To'raqo'rg'on tumani	192	234
Uychi tumani	189	233
Uchqo'rg'on tumani	304	350
Chortoq tumani	245	296
Chust tumani	297	273
Yangiqo'rg'on tumani	269	249
Namangan sh.	1204	1308

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

2025- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 73,6% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,3 foizga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarish faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 22 154,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 55,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Norin tumani (100,0 %), Yangiqo'rg'on tumani (99,9 %), Pop tumani (91,3 %) va Namangan tumani (84,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 14 237,3 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 91,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 114,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (99,3 %) Norin tumani (98,6 %), Mingbuloq tumani (98,6 %), Chortoq tumani (96,2 %) va hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 51178,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 83,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Mingbuloq tumani (95,9 %), Pop tumani (94,0 %), Namangan sh (92,4 %) va Yangiqo'rg'on (92,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 38 787,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 92,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulush Chust (98,8 %), Chortoq (98,7 %), Yangiqo'rg'on (98,4 %) Norin (94,6 %), va Kosonsoy (94,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 26 901,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 91,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 109,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on (99,2%) Uychi (99,1 %), Kosonsoy (99,1 %) va Uchqo'rg'on (98,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 42 242,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 75,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 114,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on (82,5 %), Namangan t (81,3 %), Mingbuloq (79,5 %), Kosonsoy (79,1 %) Uychqo'rg'on (78,9 %) va Norin (78,6 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar- dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 390,3 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 54,0 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Norin, hamda Pop tumanlarida – 100,0 % ni, Yangiqo'rg'on, – 99,2 %, Chortoq tumanida – 85,6 %, va Namangan tumanida – 84,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- dekabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 753,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 71,6 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumanida – 96,5 %, Pop tumanida – 95,0 %, Norin tumanida – 94,6 %, Namangan tumanida – 90,1 % Namangan shahrida – 76,0 %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,8 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,0 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrda avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,3,% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,1,% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari
dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrda 38,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar- dekabrda 33,5 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar- dekabrda nisbatan 4,5 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 52,5 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 62,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 9,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib bu ko'rsatkich 4,2 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 45,8 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 42,8 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 47,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 55,7 % yoki 8,6 birlikka ko'paygan. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 7,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib bu ko'rsatkich 1,5 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida – 45,8% ni, xizmatlar sohasida – 26,0 % ni va sanoat sohasida – 17,7 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida – 38,4% ni xizmatlar sohasida – 29,4 % ni, va sanoat sohasida – 18,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida – 52,4% ni xizmatlar sohasida – 21,4 % ni va sanoat sohasida – 17,7 % ni, tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

A. Javharov
69 211-72-00 (5030)

Manzil:

160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
